

## O'QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI METODIK YONDASHUVLARI

Shermatova Uljamol Shopulat qizi

Termiz davlat pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim" kafedrası o'qituvchisi  
uljamol2193@gmail.com Tel +998996777690

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning samarali metodik yondashuvlari yoritilgan. Unda ekologik madaniyat tushunchasining mazmuni, uning o'quvchi shaxsini tarbiyalashdagi o'rni hamda boshlang'ich ta'lim jarayonida uni shakllantirish usullari tahlil qilinadi. Maqolada interfaol, muammoli, loyiha asosida o'qitish kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ekologik tarbiyadagi samaradorligi asoslab berilgan. Shuningdek, o'quvchilarni atrof-muhitga nisbatan ongli, mas'uliyatli va ehtiyotkor munosabatga yo'naltirishda o'quv-didaktik vositalar, amaliy mashg'ulotlar va maktab tashqarisidagi tadbirlarning ahamiyati ko'rsatib berilgan. Muallif tomonidan ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ham ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** Ekologik madaniyat, o'quvchilar, metodik yondashuvlar, boshlang'ich ta'lim, interfaol o'qitish, ekologik tarbiya, o'quv-didaktik vositalar, atrof-muhit.

**Аннотация:** В данной статье освещаются эффективные методические подходы к формированию экологической культуры у учащихся. Раскрывается содержание понятия «экологическая культура», её роль в воспитании личности ученика, а также анализируются способы формирования экологической культуры в процессе начального обучения. В статье обоснована эффективность современных педагогических технологий, таких как интерактивное, проблемное и проектное обучение в экологическом воспитании. Кроме того, показано значение учебно-дидактических средств, практических занятий и внеурочных мероприятий в формировании у учащихся сознательного, ответственного и бережного отношения к окружающей среде. Автором также предложены методические рекомендации, направленные на развитие экологической культуры.

**Ключевые слова:** Экологическая культура, учащиеся, методические подходы, начальное образование, интерактивное обучение, экологическое воспитание, учебно-дидактические средства, окружающая среда.

**Abstract:** This article explores effective methodological approaches to developing environmental culture among students. It examines the concept of environmental culture, its significance in shaping the personality of learners, and analyzes methods for fostering it within the framework of primary education. The article substantiates the effectiveness of modern pedagogical technologies—such as interactive, problem-based, and project-based learning—in promoting environmental education. It also highlights the importance of instructional tools, practical activities, and extracurricular events in guiding students toward a conscious, responsible, and caring attitude toward the environment. Additionally, the author offers methodological recommendations aimed at enhancing the development of students' environmental culture.

**Key words:** *Environmental culture, students, methodological approaches, primary education, interactive teaching, environmental education, instructional tools, environment.*

## **KIRISH**

Bugungi ekologik muammolar insoniyat oldida global masala sifatida dolzarb bo'lib turibdi. Aholining ekologik ongini oshirish, ayniqsa, yosh avlodda ekologik madaniyatni shakllantirish – barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ta'lim tizimida, xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarda ekologik qadriyatlarni shakllantirish, ularni atrof-muhitga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatda bo'lishga o'rgatish eng ustuvor vazifalardan biri sanaladi.

Ekologik madaniyat — bu insonning tabiatga nisbatan ijobiy munosabati, ekologik bilim, ko'nikma va malakalarning yaxlit tizimidir. U nafaqat bilimlar to'plami, balki ongli amaliy faoliyatni ham o'z ichiga oladi. O'quvchilarda ushbu madaniyatni shakllantirish uchun ta'lim-tarbiya jarayonida samarali metodik yondashuvlardan foydalanish zarur. Ayniqsa, interfaol metodlar, muammoli o'qitish, loyihaviy ishlar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarni ekologik masalalarga befarq bo'lmagan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxs sifatida tarbiyalash mumkin. Ushbu maqolada o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar, metodik vositalar, ularning amaliy ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi hamda metodik tavsiyalar beriladi. Global miqyosda kuzatilayotgan ekologik muammolar – iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, suv va havo ifloslanishi, chiqindilar muammosi va boshqa holatlar insoniyatning atrof-muhitga nisbatan noto'g'ri munosabati natijasidir. Bu kabi muammolarni hal etish uchun nafaqat texnologik yoki iqtisodiy choralar, balki har bir fuqaroning ekologik ongini va madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan ham bugungi ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biri — ekologik tarbiya va ekologik madaniyatni rivojlantirish hisoblanadi.

Ekologik madaniyat — bu shaxsning tabiatga nisbatan ongli, mas'uliyatli va amaliy faoliyatga asoslangan munosabati bo'lib, u ekologik bilim, tushuncha, ko'nikma va qadriyatlar yig'indisidir. Ekologik madaniyatga ega bo'lgan shaxs nafaqat tabiatni asrashga intiladi, balki kundalik hayotda ekologik tamoyillarga amal qilishni shaxsiy mas'uliyat deb hisoblaydi. Bunday fazilatlarni yosh avlod ongiga singdirish esa ta'limning barcha bosqichlarida, ayniqsa, boshlang'ich ta'limda asos solinadi. Boshlang'ich ta'lim – o'quvchining shaxs sifatida shakllanishi, dunyoqarashi va qadriyatlari rivojlanishida poydevor bo'lgan bosqichdir.

Shu sababli aynan shu davrda o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya ishlarining to'g'ri tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda o'qituvchining yondashuvi, tanlayotgan metod va vositalari hal qiluvchi rol o'ynaydi. An'anaviy o'qitish usullari o'rniga interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, amaliy topshiriqlar, loyiha ishlari kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ekologik tarbiya samaradorligini oshirish mumkin.

Shuningdek, o'quvchilarni tabiatga nisbatan mehr va e'tibor bilan qarashga o'rgatishda darsdan tashqari mashg'ulotlar – sayohatlar, ekologik aksiyalar, kuzatuvlar, maktab bog'i

yoki yashil hududlardagi amaliy ishlarning o'rne beqiyosdir. Oila va jamiyat bilan hamkorlikda olib boriladigan ekologik tarbiya esa bu jarayonni yanada mustahkamlaydi.

Ushbu maqolada aynan shu maqsadlarga xizmat qiluvchi samarali metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning mazmuni, tamoyillari, usullari va o'qitish jarayonidagi innovatsion yondashuvlar yoritiladi. Shu bilan birga, ekologik tarbiyaning zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan shakllari, o'quv-didaktik vositalarning roli va pedagogik tajribalarga asoslangan metodik tavsiyalar ham ko'rib chiqiladi.

XXI asrga kelib, insoniyat ekologik muammolar bilan tobora ko'proq yuzma-yuz kelmoqda. Iqlim o'zgarishi, suv va havo ifloslanishi, chiqindilarning ko'payishi kabi global muammolar butun insoniyatni ekologik ong va madaniyatni oshirish zarurligiga undamoqda.

Shu sababli ekologik tarbiya ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish, bu boradagi metodik yondashuvlarni to'g'ri tanlash bugungi kunning dolzarb pedagogik vazifalaridan biridir. Ekologik madaniyat deganda insonning atrof-muhitga nisbatan ongli, mas'uliyatli va faol munosabati tushuniladi.

Bu tushuncha ekologik bilim, ekologik ong, ekologik his-tuyg'u va ekologik faoliyat kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Ushbu fazilatlar bolalik davridan boshlab shakllanishi kerak. Chunki insonning tabiatga bo'lgan munosabati bolalik davridagi tarbiya va bilimlarga asoslanadi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchining shaxs sifatida shakllanishidagi poydevor bosqichi hisoblanadi. Shu bois, bu davrda o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish uchun qulay pedagogik sharoitlar yaratilishi lozim. O'qituvchining o'z fanini ekologik yo'nalishlar bilan boyitishi, mavzularni tabiatga bog'lab o'tishi, amaliy ishlar orqali o'quvchini ekologik faoliyatga jalb etishi ayni muddaodir.

Ekologik tarbiya samaradorligini oshirishda zamonaviy metodik yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Jumladan:

- Interfaol metodlar (fikr almashish, aqliy hujum, "fikrlar kartasi") o'quvchilarning ekologik masalalarga nisbatan faol munosabatini shakllantiradi.
- Muammoli vaziyat asosida o'qitish ekologik muammolarning sabab va oqibatlarini tushunish, yechim taklif qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.
- Loyiha asosida o'qitish o'quvchilarga ekologik faoliyatni amaliyotda qo'llash imkonini beradi (masalan: "Mening yashil maktabim" loyihasi).
- Amaliy mashg'ulotlar (daraxt ekish, chiqindilarni ajratish, maktab bog'ida ishlash) o'quvchining tabiat bilan bevosita muloqotini ta'minlaydi.

Shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirishda o'quv-didaktik vositalar — rasmlar, videolar, ekologik xaritalar, elektron darsliklar, badiiy asarlar va ekologik o'yinlar keng qo'llanilishi lozim. Bu vositalar orqali ekologik g'oyalar o'quvchiga obrazli va ta'sirchan yetkaziladi. Darsdan tashqari faoliyat ham ekologik tarbiyaning muhim qismini tashkil etadi. Ekologik tadbirlar, viktorinalar, "Yashil maktab" haftaliklari, tabiatga ekskursiyalar, oilaviy eko-loyihalar orqali o'quvchilar ekologik qadriyatlarni hayotga tatbiq qilish imkoniga ega bo'ladilar.

O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish — bu faqat atrof-muhitni asrashni o'rgatish emas, balki ularni tabiatni sevuvchi, ekologik mas'uliyatni his qiluvchi, sog'lom va barqaror jamiyat a'zosi sifatida tarbiyalashdir. Bu jarayonda o'qituvchining metodik yondashuvi hal qiluvchi rol o'ynaydi. To'g'ri tanlangan yondashuvlar orqali ekologik tarbiyaning samaradorligi oshadi, o'quvchilar ekologik ongli va faol fuqarolar sifatida shakllanadi.

Xulosa: O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish bugungi ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ekologik muammolarning ortib borayotgani, insonning tabiatga nisbatan munosabatini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida ekologik tarbiyani samarali tashkil etish, o'quvchilarda ekologik ong, tushuncha va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish orqali barqaror rivojlanishga hissa qo'shish mumkin.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ekologik madaniyatni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol va muammoli metodlar, loyiha asosida o'qitish va amaliy mashg'ulotlarning o'rni beqiyosdir.

Shu bilan birga, o'quv-didaktik vositalar, badiiy adabiyotlar, darsdan tashqari tadbirlar va ota-onalar bilan hamkorlikda olib borilgan ishlar ekologik tarbiya samaradorligini yanada oshiradi. Demak, ekologik madaniyatni shakllantirish uzluksiz, tizimli va metodik asoslangan yondashuvni talab qiladigan murakkab, ammo muhim jarayondir. Bu borada o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki tarbiyachi va ijtimoiy faoliyat tashkilotchisi sifatida qatnashishi lozim.

## Tavsiyalar

1. Ekologik tarbiyani integratsiyalashgan holda tashkil etish – barcha fan darslariga ekologik g'oyalarni uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarda ekologik dunyoqarashni shakllantirish zarur.

2. Interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish – ekologik mavzularni o'qitishda “Aqliy hujum”, “Munozara”, “Rolga kirish” kabi metodlardan samarali foydalanish tavsiya etiladi.

3. Amaliy faoliyatga ko'proq e'tibor qaratish – maktab hududida ekologik burchaklar tashkil etish, daraxt ekish, chiqindilarni saralash kabi ishlar orqali o'quvchilarning ekologik mas'uliyatini oshirish mumkin.

4. Darsdan tashqari ishlarni kuchaytirish – ekologik viktorinalar, loyihalar, sayohatlar, ota-onalar bilan birgalikdagi ekologik tadbirlar bolalarda ekologik madaniyatni mustahkamlaydi.

5. Pedagogik kadrlar malakasini oshirish – ekologik ta'lim sohasida ishlovchi o'qituvchilar uchun maxsus seminar-treninglar tashkil qilish muhim.

6. Axborot texnologiyalaridan foydalanish – ekologik ta'limda interaktiv resurslar, video-darslar, elektron ilovalar va ekologik animatsiyalarni joriy etish tavsiya etiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermatova, U. (2024). Ecological Education In Primary Classes Formation Of Pedagogical Conditions Of Development. World Bulletin Of Social Sciences, 33, 49-53.

2. Shermatova, U. (2024). Ecological Education Teaching In Primary Class Methodology. Pedagogical Cluster-Journal Of Pedagogical Developments, 2(4), 97-105.
3. Uljamol Shermatova. (2023). Development Of Ecological Education In Primary Class. Open Access Repository, 9(10), 152-157.
4. Shermatova, U. (2020). The Light Of The Nights Without A Day. European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol, 8(4).
5. Shermatova Uljamol. Improving Ecological Education Of Future Teachers On The Basis Of Conceptual Principles International Journal Of Trend In Scientific Research And Development (Ijtsrd) Volume 6 Issue 3, March-A
6. Norbo'tayev X.B. Boshlang'ich Ta'limda Ekologik Xafvsizlik Madaniyatini Takomillashtirish. //Муаллим Ҳем Узлуксиз Билимлендириў. Илмий-Методикалык Журнал №2 Issn 2181-7138 Некис-2022. -Б. 93-97.
7. Shermatova, U. S. (2024). Boshlang 'Ich Sinf O 'Quvchilarida Ekologik Madaniyatni Rivojlantirish Xususiyatlari. Inter Education & Global Study, (10), 373-379.
8. Shermatova, U. S. (2024). Boshlang'ich Sinflarda Ekologik Ta'limni Rivojlantirish Metodikasi. Inter Education & Global Study, (4 (1)), 50-56.
9. Avezov Sh. Maktabda ekologik tarbiya. -Toshkent: O'qituvchi, 1992. - 62 b.
10. Ашурова Н. Экологическое воспитание учащихся 3-4 классов сельских школ: Автореферат дис... канд. пед. наук. - Ташкент, 1993. -18 с.
11. Norbo'tayev X.B. Boshlang'ich sinflarda fanlararo ekologik tarbiya. //Zamonaviy ta'lim. - 2018. -11-son. - B. 53-58.